XALQ DEPUTATLARI NARPAY TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 30 - dekabr VI-82-120-7-98-K/23 Narpay tumani hokimligi

Samarqand viloyati Narpay tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti tog‘risida”gi O‘RQ-886-sonli Qonuni hamda Samarqand viloyati Xalq deputatlari Kengashining 2023-yil 27-dekabrdagi “Samarqand viloyatining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-94-126-7-0-K/23-sonli qaroriga muvofiq, 2024-yil uchun Narpay tumani budjetini qabul qilish bo‘yicha xalq deputatlari Narpay tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Samarqand viloyati Xalq deputatlari Kengashining 2023-yil 27-dekabrdagi VI-94-126-7-0-K/23-sonli qaroriga asosan Narpay tumani budjetiga Samarqand viloyati budjetidan ajratilgan:

tartibga soluvchi budjetlararo transfert 97 763 219,0 ming so‘m, shundan mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i bo‘yicha transfertlar 38 547 000,0 ming so‘m miqdorida tasdiqlanganligi;

tuman budjetining aylanma kassa mablag‘i 1 381 000,0 ming so‘m miqdorda belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashi qaroriga asosan 2024-yil uchun tuman budjeti daromadlar prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman budjetidan 2024-yilgi hududiy budjet mablag‘larini

taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. 2024-yil uchun tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 1 935 249,0 ming so‘m hamda “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” hajmi 21 924 103,0 ming so‘m miqdorlarida belgilansin.

5. Tuman hokimi birinchi o‘rinbosari (A.Boliyev), tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (J.Bazarov), tuman soliq inspeksiyasi (N.Razzakov):

har chorak yakuni bilan keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasiga qadar rasmiy veb-saytlarga o‘z tasarrufidagi budjet tashkilotlari kesimida moliyaviy hisobotlarni hamda boshqa tegishli ma’lumotlarni joylashtirsin;

budjet daromadlari va xarajatlarining ko‘rsatkichlarini bajarilishini ta’minlash, soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘rish, budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi ustidan qat’iy nazoratni o‘rnatishi uchun tuman Kengashiga har oyda doimiy ravishda ma’lumot kiritib borsin.

O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

6. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlariga :

Har bir deputat o‘zlarining saylov okruglarida fuqarolarga soliq madaniyati va soliqlarni o‘z vaqtida to‘lashga doir targ‘ibot-tashviqotlar olib borilsin.

7. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Davurov), ijrosini ta’minlash moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (A.Boliyev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **Sh.Raxmanov**

Xalq deputatlari Narpay tuman
Kengashining
2023-yil 30-dekabrdagi
VI-82-120-7-98-K/23-son qaroriga
1-ilova

Samarqand viloyatining Narpay tumani mahalliy byudjetining daromadlarining 2024-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	9 780 000,0
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	19 490 000,0
3	Jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i	2 640 000,0
4	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno	7 310 000,0
5	Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	4 900 000,0
6	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	18 196 000,0
7	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	7 050 000,0
8	Aylanmadan soliq	8 900 000,0
9	Qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda davlat aktivlarini ijaraga berish va xususiylashtirishdan tushadigan daromadlar	90 000,0
10	Yig‘imlar	5 370 000,0
11	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlarning (jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan to‘lanadigan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘idan tashqari)	31 555 000,0
12	Foyda solig‘idan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘xatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari)	4 340 000,0
13	Aksiz-mobil aloqa xizmati uchun	6 730 000,0
14	Aksiz-alkogol maxsulotlari, shu jumladan pivo uchun	16 709 000,0
15	Sigaret uchun aksiz solig‘i	15 108 000,0

JAMI	158 168 000,0

Xalq deputatlari Narpay tuman
Kengashining
2023-yil 30-dekabrdagi
VI-82-120-7-98-K/23-son qaroriga
2-ilova

2024-yilgi hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

		ming so‘mda
№	**Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi**	**2024-yil**
Narpay tuman bo‘yicha xarajatlari miqdori, Jami		**217 384 219,0**
1.	Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	29 931 827,0
2.	Tuman Tibbiyot birlashmasi	100 438 315,0
3.	Tuman Madaniyat bo‘limi	9 161 284,0
4.	Yoshlar ishlari agentligi Narpay tumani bo‘limi	10 832 161,0
5.	Tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	3 815 000,0
6.	Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi	1 684 592,0
7.	Tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo'limi	5 145 811,0
8.	Tuman soliq inspeksiyasi	5 138 040,0
9.	Tuman hokimligi	51 237 189,0